

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O‘ZDJTU rektori

I.Tuxtasinov

2026 yil

**Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kiruvchilar uchun
10.00.04 - Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
ixtisosligidan
DASTUR**

Toshkent – 2026

KIRISH

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi 5847-sonli "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda 2020-yil 29-oktyabrdagi 6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi DTS, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi.

Dasturni tayyorlashda "Nazariy tilshunoslik masalalari", "Nazariy fonetika", "Nazariy grammatika", "Leksikologiya", "Stilistika" "Matn lingvistikasi", "Pragmalingvistika", "Lingvokulturologiya", "Psixolingvistika", "Til tarixi", "Tili o'ganilayotgan mamlakat adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "Jahon adabiyoti", "Tili o'ganilayotgan mamlakat zamonaviy adabiyoti", "Adabiy tanqidchilik tarixi", "Adabiy oqimlar evolutsiyasi", "Badiiy tahlil metodlari", "Rus adabiyoti tarixi", "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi", "Uslubshunoslik muammolari", "Kompyuter lingvistikasi" fanlari dasturlariga tayanildi.

Tuzuvchilar: fil.f.d. professor Kuldashev Akramjon Maxmudovich
fil.f.d. professor Mo'minova Aziza Arslonovna
f.f.f.d. professor Makhmudova Nargiza Alimovna

Taqrizchilar: Normurodova Nozliya Zarilovna- filologiya fanlari
doktori, professor (TDO'AU)
Djusupov Nursultan - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zDJTU)

Dastur O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 20__ yil ____ Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. Universitet Kengashining 1-sonli bayonnomasiga kiritilgan.

KIRISH

“Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti” ixtisosligining mazmuni Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tillarini nazariy-metodologik va funksional jihatlarini tadqiq qilishni ko‘zda tutadi. Tadqiq qilinayotgan tillarning kelib chiqishi, rivojlanishi, hozirgi holati izlanuvchilarning diqqat markazida turadi. Katta e’tibor slavyan, german va roman tillarining kelib chiqishidagi umumiy holatlar, Hind-Yevropa bobo tilini o‘rganish va rekonstruksiya qilish masalalari, Proto-hind yevropa bobo tili, proto-german, proto-roman, proto-slavyan va boshqa qadimgi tillardan hozirgi tillarga o‘tishda divergensiya va konvergensiya jarayonlarini o‘ziga xos kechishishi, qarindosh tillarini qiyosiy-tarixiy o‘rganish asosiy prinsiplarni, tillar taraqqiyotidagi umumiy va xususiy holatlar, kabi masalalar bu ixtisoslik doirasida muhokama qilinadigan muammolar doirasiga kiradi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yevropa, Amerika va Avstraliya tillarida O‘zbekiston va xorijda yaratilgan yozma va og‘zaki nutq namunalari va ular orasida e’tiborga loyiq qilishga bag‘ishlangan monografik va kollektiv xarakterdagi mualliflar asarlari tahlil qilinadi.

Bu ixtisoslik doirasida hozirgi kunda Yevropa, Amerika va Avstraliyada muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladigan tillarning kelib chiqishi, til va adabiyot normasi shakllanishini asosiy bosqichlari, unda ichki va tashqi olimlarning roli va ahamiyati, adabiy tillar normasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ekstralingvistik va gentralingvistik omillar, bu tillar funksional va tipologik jihatlaridagi va dunyoni bilishda milliy o‘ziga xosligi kabi masalalar muhokama qilinadi. Shularni inobatga olgan holda mazkur dastur ikki qismni o‘z ichiga oladi: birinchisi Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tillariga bag‘ishlangan qism bo‘lsa, ikkinchi qism Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyotiga bag‘ishlangandir.

MALAKAVIY IMTIHONNING ASOSIY TALABLARI

Tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarni malakaviy imtihonga tayyorlash quyidagilarni ko‘zda tutadi: ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, matnlarni lisoniy tahlil qilish usullarini egallash ko‘nikmalarini shakllantirish, til va adabiyot muammolarini ilmiy jihatdan yecha olish malakalarini shakllantirish va ilmiy referat yoza olish ko‘nikmalarini egallash.

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun talabgorlardan til va adabiyotga oid eng muhim masalalarni tushuna olish va lingvistik ta’lim va adabiyot yo‘naishlarini bilish talab etiladi.

DASTURNING ASOSIY MAZMUNI

I Bo'lim. Tilning nazariy muammolari

1.1 Nazariy fonetika

Nazariy fonetika tilshunoslikning sohasi sifatida. Umumiy fonetika va maxsus fonetika. Nutq tovushlarini tasniflash muammosi. Nutq tovushlarining funksional jihat. Fonetika va fonologiya. Tillarining fonologik tizimlari. Fonologik tizimdagi oppozitsiyalar tasnifi. Fonologik maktablar vakillarining nazariy va amaliy fonologik tadqiqotlar sohasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari. Suprasegmental fonetika. Suprasegmental fonetik komponentlar. Bo'g'in va urg'u. Tillarda so'zlarning bo'g'in tuzilishi. Bo'g'in urg'usi va uning turlari. Tillaridagi so'zlarning aksentual tuzilishi tipologiyasi. Intonatsiya lingvistik unirsaliya sifatida. Tillarda intonatsiya (prosodiya) komponentlari. Assimilyatsiya tushunchasi. To'liq va qisman assimilyatsiya. Fonostilistika. Fonetik uslublarni tasniflash tamoyillari. Fonostil turlari: informatsion, akademik, publitsistik, deklamativ, so'zlashuv va boshqalar. Fonetik ekspressiv vositalar: evfoniya, onomatopeya, alliteratsiya, assonans. Og'zaki nutqni tahlil qilish metodlari.

1.2 Nazariy grammatika

Morfologiya. Morfema morfologik sathning asosiy birligi sifatida. Morfemalarning turlari. Nominatsiya. Ot va fe'l turlari. Predikatsiya. Elementar sintaktik birikmalar. Deyxis. Morfologiya va grammatika. O'zak va fleksiya. So'z shakli va uning turlari (fonetik, grammatik, analitik). Morfologik birliklarning ma'nosi. Leksik, so'z yasovchi va grammatik ma'nolar. So'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi formantlar va ularning turlari. Grammatik kategoriya tushunchasi. Sintaktik munosabatlarni ifodalashga qaratilgan kategoriyalar. Tillarning morfologik tipologiyasi. Tillarning tipologik tasnifida german tillarining o'rni. Tillarda gap bo'laklarini aniqlash muammosi. Tillarda gap bo'laklarining nomenklaturasi. Nutqning muhim qismlarini aniqlash: ot, sifat, son, fe'l, ravish.

Sintaksis. Sintaksis va morfologiya (morfosintaksis). Sintaksis va semantika (sintaktik semantika). So'z birikmasi va gap sintaksisning asosiy birliklari sifatida. So'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlari. Morfologik va sintaktik tamoyillarga asoslangan so'z birikmalar tasniflari. Gap maksimal sintaktik birlik sifatida. Gapning o'ziga xos belgilari. Gapda so'zlarning tartibi. Gap va uning turlari. Gapning strukturaviy turlari. Murakkab gaplarning qo'shma va murakkab gaplarga bo'linishi, ularning o'ziga xos belgilari. Murakkab gaplarning tasnifi.

Gaplarning sintaktik bo'linish tamoyillari. Gap bo'laklari va sintaktik munosabatlar. Gapning asosiy bo'laklari. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Sintaktik munosabatlar ierarxiyasi. Sintaktik jarayonlar. Sintaktik sinonimiya va omonimiya. Transformatsiya tushunchasi. N. Chomskiyning transformatsion modeli. Tema va rema tushunchalari.

1.3 Leksikologiya

So'zning tuzilishi va semantikasini tahlil qilish tamoyillari va usullari. So'z nazariyasining asosiy muammolari. O'rganilayotgan til lug'atini o'rganishning asosiy jihatlari: strukturaviy-semantik, funksional, pragmatik, kognitiv, lingvomadaniy. Leksik tizimining asosiy birliklari: so'z, so'z birikmasi, konstruktsiya. Leksema tushunchasi va uning turlari. So'z tilning asosiy tarkibiy-semantik birligi sifatida. So'z ma'nosi va leksik nominatsiya muammolari. So'zning leksik, grammatik va pragmatik ma'nosi. So'zning leksik-semantik variantlari. So'zning ma'nosini o'zgartirish. Semantik ekvivalentlik va sinonimiya. Antonimiya. Tilning leksik tizimidagi birliklarning semantik aloqalari. Semantik munosabatlar lug'atdagi paradigmatic munosabatlarning eng muhim turi sifatida. Ko'p ma'nolilik va omonimiya, ularning german tillari leksikasi tizimidagi o'rni. Atama tushunchasi: tuzilishi, vazifalari, tipologiyasi. "Ma'no" atamasining polisemiyasi. Ma'nolar tipologiyasi. Leksik va grammatik ma'no. Leksik-semantik paradigmatica. Semantik maydon tushunchasi: sinonimiya, giponimiya, antonimiya, konversiya.

Frazeologizmlar: turg'unlik va idiomatiklik; frazeologik birliklarning turlari va ularning ma'nosini ifodalash usullari. Frazeologik birliklar, ularning umumiy belgilari, so'zlar bilan funksional va semantik o'xshashligi. Erkin iboralar, frazeologik xarakterga ega bo'lmagan turg'un iboralar va frazeologik birliklar. Frazeologik birliklarning idiomatikligining turli darajalari. Frazeologik ma'noning asosiy turlari. Frazeologik birliklarni tasniflash tamoyillari. Frazeologik birliklarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlari. Mutaxassislik tilidagi frazeologik birliklar semantikasining milliy-madaniy o'ziga xosligi.

Tillar lug'at tarkibining etimologik asoslari. Tillardagi tub so'zlar. Lug'at tarkibidagi hind-evropa elementlari. Lug'at tarkibidagi german elementi. Tillarning leksik tizimidagi o'zlashuvlar. Chet tili lug'atini o'zlashtirish tarixi, usullari va turlari. Etimologik dubletlar, ularning paydo bo'lish sabablari va turlari. Tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlar bilan to'ldirishning hozirgi bosqichi, uning xususiyatlari. Tillarining etimologik lug'atlari, ularning hajmi va tuzilishi. Etimologiyaning ilmiy bilim sohasi sifatida rivojlanish bosqichlari. O'zlashtirilgan lug'atga doir davlat tili siyosati.

Tillarda so'zlarning morfologik tuzilishi. Morfema tilning minimal ma'no bildiruvchi birligi sifatida. So'zlarni morfemik tahlil qilish tamoyillari. Morfemalarning tasnifi. Derivatsion tahlilning maqsadi va tamoyillari. So'z

yasalishi va uning turlari. Derivatsion modellar. Soʻzni komponenti boʻyicha tahlil qilish. Soʻz yasash ikkilamchi nominatsiya sifatida. Tillar lugʻatini toʻldirishda soʻz yasash jarayonlarining oʻrni. Soʻz yasash uyasining asosiy belgilari, soʻz turkumi, leksik uya va soʻzlarning bu sinflarga mansubligini aniqlashning qiyinligi. Mutaxassislik tilida soʻz yasashning asosiy yoʻllari: affiksatsiya (prefiksatsiya va qoʻshimcha), konversiya, birikma, abbreviatura va ularning xususiyatlari. Neologizmlarning oʻziga xos xususiyatlari. Neologizmlarning tasnifi.

Leksikografiya amaliy tilshunoslikning muhim sohasi sifatida. Lugʻatlarning asosiy turlari. Entsiklopedik va lingvistik lugʻatlar. Lingvistik lugʻatlarning tasnifi. Izohli lugʻatlar. Tarjima lugʻatlar. Maxsus lugʻatlar. Lugʻatlarni tuzishning asosiy muammolari. Lugʻatlarni tuzishning asosiy mezonlari.

1.4 Stilistika

Stilistika turlari (fonostilistika, leksik stilistika, sintaktik stilistika, badiiy matn stilistikasi). Funktsional uslub tushunchasi va turlari. Nutqni tashkil etishda maʼlum bir funktsional uslubga doir lisoniy vositalar va til birliklari xususiyatlari. Funktsional uslublarning maqsad va vazifalari. Til ligatining stilistik tasnifi. Badiiy nutq va soʻzlashuv nutqi xususiyatlari. Badiiy nutq va soʻzlashuv nutqida qoʻllaniladigan soʻzlarning stilistik tasnifi. Til birliklarining stilistik xususiyatlari, variantlari, sinonimik ifodalash usullari va ularni muloqot sharoitlari va maqsadlariga muvofiq qoʻllash qonuniyatlari. Stilistik maʼno tushunchasi. Til birliklarining stilistik buyoqdorligining asosiy turlari. Funktsional-stilistik va hissiy-ekspressiv buyoqdorlik turlari. Nutqning ogʻzaki va yozma shakllari va ularning xususiyatlari. Stilistik vositalar. Stilistik xato va uning boshqa nutq xatolaridan farqi. Sintaktik stilistika. Til stilistikasi va nutq stilistikasi. Stilistik tahlil turlari. Stilistik funktsiya tushunchasi. Stilistik vositalar (troplar) va ularning turlari. Tilning stilistik va ekspressiv vositalari. Har xil turdagi leksik maʼnolarning stilistik ishlatilishi. Gap tuzishning stilistik uslublari, shakllari va turlari, gaplarning toʻgʻri tashkil etilishi. Shaxslararo muloqotda suhbat uslubi. Xalq tili, shevalari. Ilmiy uslub. Rasmiy biznes uslubi. Ommaviy axborot vositalari va jurnalistik uslub. Reklama uslubi. Badiiy uslub. Badiiy asarning stilistik tahlili. Ritorika. Nutq janrlari.

BAHOLASH MEZONLARI
IXTISOSLIK BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI
Maksimal ball - 100 b.

Baho	Ball	Izoh
A'lo	90-100	Ball oxirida har bir savol uchun alohida jamlanadi va belgilanadi. 1-2 savollar 35 ball, 3-savol uchun 30 ball
Yaxshi uchun	70-89	
O'rta	60-69	
Qoniq arsiz	0-59	

1-savol - 35 b.

Baho	Ball	Baholash mezonlari
A'lo	30-35	Sohasidagi zamonaviy qarash va yondashuvlarni to'liq bilish va javoblari ilmiy dalillar bilan isbotlash.
Yaxshi	25-29	Ixtisosligi bo'yicha zamonaviy qarash va yondashuvlarni to'liq bilish va javoblarni ba'zi ilmiy dalillar asoslash.
O'rta	19-24	Ixtisosligi sohasidagi ayrim zamonaviy qarashlarni bilish.
Qoniqarsiz	0-18	Savol bo'yicha hech qanday axborotga ega emas.

2-savol - 35 b.

Baho	Ball	Baholash mezonlari
A'lo	30-35	Ixtisoslikni yuqori darajada egallaganligi.
Yaxshi	25-29	Xorijiy adabiyot ixtisosligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ob'yektini yaxshi tushunishi.
O'rta	19-24	Mavzu bo'yicha faqat nazariy yoki faqat amaliy kasbiy malakani egallaganligi.
Qoniqarsiz	0-18	Savol bo'yicha nazariy bilim va amaliy tajribaga ega emasligi.

3-savol - 30 b.

Baho	Ball	Baholash mezonlari
A'lo	27-30	Bajarilgan tadqiqoti bo'yicha yuqori darajada ma'lumotga ega bo'lishi, uning dolzarbligi, yangiligi, erishilgan natijalari, ishlab chiqilgan tavsiyalari, ekperiment xulosalarini oliy darajada taqdim eta olishi. Qo'shimcha savollarga javob bera olishi.

Yaxshi	22-26	Bajarilgan ilmiy-tadqiqoti bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish, uning dolzarbligi, yangiligi, erishilgan natijalari, tavsiya va xulosalarini yaxshi taqdim eta olish.
O'rta	17-21	Ilmiy-tadqiqotini to'liq taqdim eta olmaslik, uning natijalarini aniq dalillar bilan ochib bera olmaslik.
Qoniqarsiz	0-16	Ilmiy-tadqiqot bo'yicha ma'lumot bera olmaslik.

Rus tili

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуазизов А.А. Общее языкознание. – Ташкент: Университет, 2001.
2. Касаткин Л.Л. Современный русский язык: Фонетика. – М.: Academia, 2006.
3. Козырев В.А., Черняк В.Д. Русская лексикография. – М.: Дрофа, 2004.
4. Крысин Л.П. Современный русский язык. Лексическая семантика. Лексикология. Фразеология. Лексикография. – М.: Academia, 2007.
5. Лекант П.А., Диброва Е.И. Касаткин Л.Л. Клобуков Е.В. Современный русский язык. – М.: Дрофа, 2002. – 560 с.
6. Панов М. В. Труды по общему языкознанию и русскому языку. – М.: Языки славянской культуры, 2004.
7. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 8-е изд., доп. – М.: Языки славянской культуры, 2001.
8. Язык русского зарубежья / Отв. ред. Е.А.Земская. – М.: Языки славянской культуры, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мокиенко В.М. Загадки русской фразеологии. – Санкт-Петербург: Авалон, Азбука классики, 2007.
2. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М., 2003.
3. Шмелев Д.Н. Русский язык и внеязыковая действительность. – М.: Языки славянской культуры, 2002.

Lug'atlar

1. Большой толковый словарь русского языка / Под ред. С.А.Кузнецова, – Петербург, 2002.
2. Культура русской речи. Энциклопедический словарь-справочник. Отв. ред. Л.Ю. Иванов, Е.Н. Ширяев, А.П. Сковородников. 2-е изд. – М., “Флинта”, 2008.

Internet-resurslar

1. <http://www.links-guide.ru/sprachen/lexica/fraseologija.htm>
2. <http://www.gramota.ru>
3. www.wikipedia.ru
4. <http://www.philol.msu.ru>
5. <http://www.links-guide.ru>
6. <http://www.islu.irk.ru>
7. <http://slovari.gramota.ru>
8. [http:// auditorium.ru](http://auditorium.ru)

Ingliz tili Asosiy adabiyotlar

Назарий фонетика

1. Абдуазизов А.А. Ҳозирги инглиз тили назарий фонетикаси (инглиз тилида). – Тошкент, 2010.
2. Rouch P. English Phonetics and Phonology. Cambridge University Press. 2004.
3. Бурая Е.А., Галочкина И.Е., Шевченко Т.И. Фонетика современного английского языка. Теоретический курс. – М. : Академия, 2009. – 272 с.
4. Леонтьева, С. Ф. Теоретическая фонетика современного английского языка. – М. : Издательство «Менеджер», 2011. – 336 с.

Назарий грамматика

1. Бархударов Структура простого предложения в современном английском языке. Грамматика английского языка. – М. : URSS, 2016. – 224 с.
2. Буронов Ж.Б. Инглиз ва узбек тиллари киёсий грамматикаси. – Т., 1973.
3. Irisqulov M.T., Tuxtasinov I.M. Kuldashev A.M. Theoretical English Grammar of the English language. – Т., 2019. – 224 с.
4. Блох, М. Я. Теоретическая грамматика английского языка : Учеб. – 3-е изд., испр / М. Я. Блох. – М. : Высш. шк., 2000. – 381 с.

Лексикология

1. Антрушина, Г.Б. Лексикология английского языка: Г.Б. Антрушина, О.В. Афанасьева, Н.Н. Морозова. – Люберцы: Юрайт, 2016. – 287 с.
2. Арнольд, И.В. Лексикология современного английского языка: Учебное пособие / И.В. Арнольд. – М.: Флинта, 2014
3. Бабич, Г.Н. Лексикология английского языка. *Lexicology: A Current Guide* / Г.Н. Бабич. – М.: Флинта, 2013.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Феникс, 2005.

Стилистика

1. Арнольд, И.В. Стилистика современного английского языка (Стилистика декодирования). – М. : Флинта : Наука, 2002. – 384 с.
2. Гальперин, И.Р. Стилистика английского языка / И. Р. Гальперин. – М. Либроком; Издание 3-е, 2010. – 336 с.
3. Молчанова, Г.Г. Английский язык как неродной: текст, стиль, культура, коммуникация. М.: Олма Медиа Групп, 2007.
4. Ashurova D.U., Galieva M.R. *Text Linguistics*. - Tashkent, 2012.
5. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. *Stylistics of Literary Text*. - Tashkent, 2016.

Ispan tili

1. Арутюнова П.Д. Очерки по словообразованию в современном испанском языке. – М. 2003.
2. Васильева-Шведе О.К., Степанов Г.В., Теоретическая грамматика испанского языка. Морфология и синтаксис частей речи. – М. 2002.
3. Деев М.Н. Предлоги современного испанского языка. – М. 2003.
4. Карпов Н.И. Фонетика испанского языка. – М., 2000.
5. Степанов Г.В. К проблеме языкового варьирования. – М., 2002.
6. Супрун А.В. Грамматика и семантика простого предложения (на материале испанского языка). – М. 2002.

Fransuz tili

1. Abdouchoukourova L.A. *Stylistique du francais moderne*. – Т., 2004.
2. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – Добросвет, 2000.
3. Гак В.Г. Француз тилининг назарий грамматикаси. – Самарканд: 2002. Морфология. (И.Мирзаев таржимаси).
4. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М., 2004.

5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.. 2009.
6. Потоцкая Н.П. Стилистика современного французского языка. – М., 1974.
7. Степанов Ю.С. Французская стилистика. – М.. 1982. 2003.
8. Хованская З.И., Дмитриева Л.Л. Stylistique francaise. – М., 2004.

Nemis tili

1. Pan G.W. Deutsche Stilistik, – Т. 2010.
2. Брандес М.П., Провоторов В.И. Анализ текста, – М. 2003
3. Engel U. Kurze Grammatik der deutschen Sprache. Iudicium, Miinchen, 2002.
4. Ryszard Lipczuk. Diskurslinguistik und Systemlinguistik. – Hamburg. 2010.
5. Peter Schlobinski. Grundfragen der Sprachwissenschaft. – Gottingen. 2014.
6. Ozlem Tekin. Grundlagen der kontrastiven Linguistik in Theorie und Praxis. Tübingen. 2013.
7. Albert Busch u.a. Germanistische Linguistik. –Tübingen. 2007.
8. Thomas Becker. Einführung in die Phonetik und Phonologie des Deutschen. Darmstadt. 2012.

II BO'LIM. YEVROPA, AMERIKA VA AVSTRALIYA

XALQLARI ADABIYOTI

“Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyoti” ixtisosligining asosiy mazmuni mazkur mintaqalar adabiyoti tarixi va uning nazariy muammolarini tadqiq etish, alohida yozuvchilar ijodining mohiyati hamda o'ziga xos jihatlarini o'rganishdan iboratdir. Ixtisoslik doirasida adiblarning badiiy dunyoqarashi, ijodiy paradigmasi, novatorlik tamoyillari va badiiy mahorati, shuningdek, milliy an'analar hamda jahon adabiyoti bilan uzviy aloqalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, badiiy ijod janrlari, uslublar, oqim va yo'nalishlarning shakllanishi hamda rivojlanish qonuniyatlari, adabiy jarayon va badiiy tafakkur dinamikasi chuqur o'rganiladi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida qo'lyozma va bosma shakldagi adabiy manbalar, O'zbekiston hamda xorij arxivlarida saqlanayotgan materiallar, shuningdek, Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyotiga oid ilmiy tadqiqotlar xizmat qiladi. Adabiy mumtoz merosni o'rganish, uning zamonaviy ma'naviy-axloqiy madaniyatdagi o'рни va barqaror estetik qiymatini anglash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalish Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyotining milliy o'ziga xosligi, tarixiy taraqqiyoti, zamonaviy holati hamda rivojlanish qonuniyatlarini jahon adabiy jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishga qaratilgan. Shu bois dastur ikki asosiy bo'lim — rus adabiyoti tarixi va chet el adabiyoti tarixidan tashkil topgan.

Ushbu mutaxassislik bo'yicha tadqiqot olib boruvchi izlanuvchi rus va chet el adabiyoti tarixining turli davrlari, adabiy yo'nalishlar, janrlar hamda individual mualliflar ijodining o'ziga xos xususiyatlarini puxta bilishi zarur. Zamonaviy adabiyotshunoslikning rivojlanish bosqichlari va metodologik tamoyillaridan kelib chiqib, kirish imtihoni dasturi mutaxassislikning eng muhim nazariy va amaliy masalalarini qamrab oladi.

Rus adabiyoti tarixi.

1.1 Qadimgi rus adabiyoti tarixi.

Qadimgi rus adabiyoti tarixi. "Igor polki jangnomasi" ning badiiy o'ziga xosligi. Asarda vatanparvarlik g'oyalari. Asarning syujeti, kompozitsiyasi va poetik xususiyatlari.

1.2 XVIII asr rus adabiyoti.

Rus klassitsizmi adabiyotining o'ziga xosligi. M.V.Lomonosovning novatorligi. Lomonosov qasidalarining g'oyaviy-tematik mazmuni, G.Derzhavin lirikasining falsafiy va fuqarolik ruhi, D. Fonvizin dramaturgiyasida ma'rifatchilik va satira ("Nodon"). Rus sentimentalizmining shakllanishi va klassitsizmdan farqli jihatlari. N. Karamzinning "Bechora Liza" qissasida inson kechinmalari, fojiaviy muhabbat, tabiat tasviri va axloqiy-psixologik konfliktning badiiy talqini.

1.3. XIX asr rus adabiyoti.

Rus adabiyotida romantizm xususiyatlari (Pushkin, Lermontov). A.S. Pushkinning "Janubiy poemalari". Qahramon tipologiyasi. Tasviriy ifoda vositalari. M.Yu. Lermontovning romantik she'riyati. Shoirning peyzaj, falsafiy va sevgi lirikasi. "Zamonamiz qahramoni" asari o'tish davri asari sifatida. Buyuk rus realistlari – A. Pushkin, N. Gogol, L. Tolstoy, N. Nekrasov, I. Goncharovlar F. Dostoevskiy, I. Turgenevlarning adabiyotdagi roli. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" romanining g'oyaviy va estetik mazmuni. Rus adabiyotida "ortiqcha odami" obrazi. Asardagi obrazlar tizimi. Muallif obrazi. Rus realizmi asarlarining badiiy o'ziga hosliklari. N.V.Gogol va uning rus adabiyotidagi an'analari. "Sankt-Peterburg ertaklarida" "kichkina odam" obrazi. Bashmachkinning badiiy turi ("Shinel"). "O'lik jonlar" rus adabiyotining tarixiy asari sifatida L. Tolstoyning "Urush va tinchlik" asari epik asar sifatida. Rossiya tarixidagi voqealarni aks ettirish. Romanning obrazlar tizimi. N.Nekrasov poemasida folklor an'analari va oddiy odamlar obrazlari. "Rusiyada kim yaxshi yashaydi." F. Dostoevskiyning "Jinoyat va jazo" romanidagi falsafiy va axloqiy muammolar.

1.4. XX-XXI asrlar rus adabiyoti.

Rus klassiklari A.P.Chexov, A.M.Gorkiy, M.Zoshchenko, I.Bunin, A.Kuprin. S. Yesenin ijodining global ahamiyati. Xorijiy rus adabiyoti. Modernizm tushunchasi va uning mohiyati. Rus simvolizmi va uning falsafiy-estetik asoslari Aleksandr Blok, Valery Bryusov, Andrei Bely ijodida. Akmeizmning aniqlik va predmetlilik tamoyillari Anna Akhmatova, Nikolay Gumilyov ijodida. Futurizmning novatorlik va til eksperimenti Vladimir Mayakovsky ijodida. XXI asr boshidagi rus adabiyotining eng muhim hodisalari. Rus postmodernizmining shakllanishi, uning estetik tamoyillari. Viktor Pelevin, Vladimir Sorokin, Tatyana Tolstaya, Ludmila Ulitskaya, Boris Akunin ijodida postmodern tafakkur va zamonaviy jamiyat muammolari talqini.

Jahon adabiyoti tarixi.

2.1. Antik adabiyot tarixi.

Qadimgi mifologiya, uning jahon adabiyoti va madaniyatidagi tarixiy hamda badiiy ahamiyati. Yunon mifologiyasining asosiy syujetlari va obrazlari. Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida qahramonlik, taqdir va sayohat motivlari, syujet va poetika xususiyatlari. Antik lirika va uning asosiy namoyandalari: Sappho (Safo), Alcaeus (Alkay), Anacreon (Anakreon) ijodida sevgi, tabiat va inson kechinmalari tasviri. Antik dramaturgiyaning shakllanishi va tragediya janri. Aeschylus (Esxil)ning “Oresteya” trilogiyasida taqdir, ayb va qasos motivlari. Sophocles (Sofokl)ning “Shoh Edip” tragediyasida inson va taqdir konflikti. Euripides (Yevripid)ning “Medeya” tragediyasida ehtiros va fojiaviy xarakter talqini. Rim adabiyoti va dramaturgiyasi. Plautus (Plavt) komediyalarida xalqona kulgi va satira. “Xumcha” va “Psevdol” (“Aldamchi qul”) komediyalarining syujet va badiiy xususiyatlari.

2.2. Oʻrta asrlar adabiyoti

Qadimgi german eposining ilk namunasi sifatida “Beovulf” poemasi mazmuni va badiiy xususiyatlari. Qadimgi Skandinaviya adabiyoti, island sagalari va “Katta Edda”, “Kichik Edda” yodgorliklarining mifologik asoslari. Fransuz qahramonlik eposi – “Roland haqida qoʻshiq”da vatanparvarlik, sadoqat va qahramonlik gʻoyalari. Ispan qahramonlik eposi – “Sid haqida qoʻshiq”da milliy birlik, jasorat va ideal qahramon obrazi. J. Chocer ijodi va “Kanterberi hikoyalari” asari. XII–XIII asrlarda ritsar-kurtuaz adabiyoti, Qirol Artur haqidagi afsonalar va “Davra suhbat ritsarlari” motivi.

2.3 Uygʻonish davri adabiyoti

Renessansning asosiy xususiyatlari: gumanizm, antik merosga murojaat, inson shaxsiga eʼtibor va dunyoviy tafakkurning kuchayishi. Yevropada Uygʻonish davrining vujudga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari. Italiya Uygʻonish davri adabiyoti. Dante Aligieri ijodi va “Ilohiy komediya” asarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari. Francesco Petrarca lirikasida inson ruhiyati va sevgi poetikasi. J. Bokkachoning “Dekameron” asarida realistik tasvir anʼanalari. Fransuz Uygʻonish davri adabiyoti va François Rabelais ijodi. “Gargantua va Pantagryuel” asarida satira va gumanistik gʻoyalar. Utopik tafakkur va Tomas Morning Utopia asarida ideal jamiyat konsepsiyasi. Uygʻonish davri ingliz adabiyoti va Uilliam Shakespirning ijodi. “Qiyiq qizning quyilishi”, “Oʻn ikkinchi kecha” komediyalari,

“Hamlet”, “Otello”, “Qirol Lir”, “Romeo va Julietta” tragediyalarida insoniy ziddiyatlar va ijtimoiy hayot talqini. Shekspir sonetlarining badiiy xususiyatlari va tarixiy xronikalarida davr tasviri. Uygʻonish davri gumanistlari ijodining jahon adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni.

2.4 Marifatchilik davr adabiyoti

Klassitsizm adabiyotining oʻziga xosligi. B.Molyer innovator sifatida (komediyaning yangi turi). “Tartyuf”, “Xasis kishi” komediyalari - personajlar tizimi, konflikt va syujetning oʻziga xosligi. Lope de Vega va uning qahramonlik dramalari. Daniyel Defoning “Robinzon Kruzo”, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Fransuz maʼrifatchilik harakatining oʻziga xosligi. F.Volter. D.Didro va J.J.Russo ijodida maʼrifatparvarlik gʻoyalari. Nemis maʼrifatchilik adabiyoti. G.F.Lessing dramalari. F.Shiller va I.V.Gyote ijodida maʼrifat masalasi. Insoniyat jamiyatiga xizmat qilish muammosi. AQSH adabiyotida Benjamin Franklin ijodi.

2.4. XIX asr adabiyoti tarixi:

Romantizm adabiyotining gʻoyaviy asoslari. Gʻarb adabiyotining eng muhim romantiklari (Bayron, Shelli, U. Skott) va realizm adabiyoti (XIX-asrning 2-yarmi). Bayronning “Chayld Haroldning ziyorati” poemasi. Shellining falsafiy va peyzaj lirikasi. Valter Skott tarixiy romanlar asoschisi (“Ayvengo”, “Kventin Dorvard”) asarlari. O. Balzakning ijtimoiy romanlari va hikoyalari. Stendal asarlarida tanqidiy realizmi (“Qizil va qora” romani). Charlz Dikkensning realistik romanlari (“Dombey va uning oʻgʻli”). Dikkens romanlarida bola obrazi tasvirlari (“Oliver Tvist”). XIX-XX asrlar boshida realizm. Naturalizm va E. Zolya ijodi. “Jerminal” romanida mehnat mavzusi. A. Fransning “Pingvinlar oroli” satirik allegoriyasi. Dekadans vakillari ijodi (O. Uayld estetikasi). “Dorian Greyning portreti” romanida Uayldning mafkuraviy tushunchalari ifodasi sifatida.

2.5. XX-XXI asrlar adabiyoti tarixi.

XX asr adabiy jarayoni va uning asosiy yoʻnalishlari: realizm, modernizm, postmodernizm, ekzistensializm va absurd adabiyoti. Modernizm poetikasi, “ong oqimi” usuli va badiiy eksperimentlar James Joyce, Virginia Woolf, Franz Kafka, Marcel Proust ijodida. Ernest Hemingway, John Steinbeck, Thomas Mann, Albert Camus asarlarida. Hemingway ijodida “yoʻqotilgan avlod” mavzusi (“Alvido, qurol!”, “Qoʻngʻiroq kim uchun chaladi”), “Chol va dengiz” qissasining falsafiy mazmuni. Steinbeckning “Marvarid” asarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Bertolt Brecht dramaturgiyasida epik teatr va “begonalashtirish effekti”. “Ona jasorati va uning bolalari” pyesasida urushga qarshi gʻoyalar. Absurd adabiyoti va ekzistensializm Jean-Paul Sartre, Samuel Beckett, Eugène Ionesco ijodi misolida.

Postmoderniz poetikasi Umberto Eco, Julian Barnes, Patrick Süskind, Frédéric Beigbeder asarlarida.

XXI asr G'arb adabiyotining asosiy tendensiyalari: globallashuv, shaxsiyat, migratsiya, texnologiya va ekologik muammolarning badiiy talqini. Margaret Atwood, Ian McEwan, Kazuo Ishiguro ijodining o'ziga xos xususiyatlari. Diaspora adabiyotining asosiy namoyondalari. XX–XXI asr Nobel mukofoti sovrindorlari ijodi va ularning jahon adabiyotidagi o'rni: William Faulkner, Toni Morrison, Doris Lessing, Alice Munro, Annie Ernaux va boshqalar.

BAHOLASH MEZONLARI
IXTISOSLIK BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI
Maksimal ball - 100 b.

Baho	Ball	Izoh
A'lo	86-100	Ball oxirida har bir savol uchun alohida jamlanadi va belgilanadi. 1-2 savollar 35 ball, 3-savol uchun 30 ball
Yaxshi uchun	71-85	
O'rta	55-70	
Qoniq arsiz	0-59	

1-savol - 35 b.

Baho	Ball	Baholash mezonlari
A'lo	30-35	Xorijiy adabiyot sohasidagi zamonaviy qarash va yondashuvlarni to'liq bilish va javoblarni ilmiy dalillar bilan isbotlash.
Yaxshi	25-29	Xorijiy adabiyot ixtisosligi bo'yicha zamonaviy qarash va yondashuvlarni to'liq bilish va javoblarni ba'zi ilmiy dalillar asoslash.
O'rta	19-24	Xorijiy adabiyot ixtisosligi sohasidagi ayrim zamonaviy qarashlarni bilish.
Qoniqarsiz	0-18	Savol bo'yicha hech qanday axborotga ega emas.

2-savol - 35 b.

Baho	Ball	Baholash mezonlari
A'lo	30-35	Xorijiy adabiyot tarixi va nazariyasining yuqori darajada nazariy va amaliy egallaganligi.
Yaxshi	25-29	Xorijiy adabiyot ixtisosligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ob'yektini yaxshi tushunishi.

O'rta	19-24	Mavzu bo'yicha faqat nazariy yoki faqat amaliy kasbiy malakani egallaganligi.
Qoniqarsiz	0-18	Savol bo'yicha nazariy bilim va amaliy tajribaga ega emasligi.

3-savol - 30 b.

Baho	Ball	Baholash mezonlari
A'lo	27-30	Bajarilgan tadqiqoti bo'yicha yuqori darajada ma'lumotga ega bo'lishi, uning dolzarbligi, yangiligi, erishilgan natijalari, ishlab chiqilgan tavsiyalari, ekperiment xulosalarini oliy darajada taqdim eta olishi. Qo'shimcha savollarga javob bera olishi.
Yaxshi	22-26	Bajarilgan ilmiy-tadqiqoti bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish, uning dolzarbligi, yangiligi, erishilgan natijalari, tavsiya va xulosalarini yaxshi taqdim eta olish.
O'rta	17-21	Ilmiy-tadqiqotini to'liq taqdim eta olmaslik, uning natijalarini aniq dalillar bilan ochib bera olmaslik.
Qoniqarsiz	0-16	Ilmiy-tadqiqot bo'yicha ma'lumot bera olmaslik.

Rus adabiyotiga oid asosiy adabiyotlar

1. Белякова Н. Н. Русские писатели XX века: от Бунина до Шукшина [Электронный ресурс] : учеб. пособие. – М. : Флинта, 2012. – 440 с. – URL: <https://e.lanbook.com/book/3333>
2. Гудзий Н. К. История древнерусской литературы. – М. : Флинта, 2001.
3. История русской литературы : в 10 т. / под ред. Б. П. Городецкого. – М. ; Берлин : Директ-Медиа, 2014. – Т. 7. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=41340>
4. История русской литературы : в 10 т. / под ред. Б. П. Городецкого, Д. Д. Благого. – М. ; Берлин : Директ-Медиа, 2014. – Т. 6. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=455856>
5. История русской литературы : в 10 т. / под ред. В. А. Десницкого, В. В. Гиппиус. – М. ; Берлин : Директ-Медиа, 2014. – Т. 5. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=41338>
6. Косович Л. Ф., Панова Е. П., Филимонова Н. Ю. Русская литература X–XX века [Электронный ресурс] : учеб. пособие. – М. : Флинта, 2014. – 533 с. – URL: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_id=51857
7. Кривонос В. Ш. История русской литературы XIX века (1800–1830) [Электронный ресурс] : учеб. пособие. – М. : Флинта, 2015. – 424 с. – URL: <http://e.lanbook.com/book/70444>
8. Лейдерман Н. Л., Липовецкий М. Н. Современная русская литература. – М. : Флинта, 2003.
9. Недзвецкий В. А., Полтавец Е. Ю. История русской литературы 1840–1860-х годов [Электронный ресурс]. – 2-е изд. – М. : Юрайт, 2017. – 377 с. – URL: www.biblio-online.ru/book/22699A6B-108B4C4E-BB6C-303C9395C5EB
10. Русская литература XX века : в 2 т. / под ред. Л. П. Кременцова. – М., 2003.
11. Русская постмодернистская литература : учеб. пособие. – 3-е изд. – М. : Флинта : Наука, 2001.
12. Федоров В. И. История русской литературы XVIII века. – М. : Просвещение, 2000.

- 13.Юрина Н. Г. История древнерусской литературы [Электронный ресурс] : учеб.-метод. пособие. – М. : Флинта, 2015. – 302 с. – URL: <https://e.lanbook.com/book/70436>

Rus adabiyotiga oid qo'shimcha adabiyotlar

- 14.Есин А. Б. Русская литература XIX века: задачи, тесты, полезные игры [Электронный ресурс] : учеб. пособие. – М. : Флинта, 2014. – 218 с. – URL: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_id=62973
- 15.История русской литературы XX – начала XXI века : в 3 ч. / под ред. В. И. Коровина. – М. : ВЛАДОС, 2014. – Ч. 3. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=56584>
- 16.Калиганов И. И. Веков связующая нить (Вопросы истории и поэтики славянских литератур и культур). – М., 2006. – 602 с.
- 17.Коровин В. И., Дмитриева Е. Е., Капитанова Л. А. История русской литературы XX – начала XXI века : в 3 ч. – М. : ВЛАДОС, 2014. – Ч. 2. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=458006>
- 18.Косович Л. Ф., Панова Е. П., Филимонова Н. Ю. Русская литература X–XX века [Электронный ресурс]. – М. : Флинта, 2014. – URL: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_id=51857
- 19.Кременцов Л. П. Русская литература XIX века. 1801–1850 [Электронный ресурс]. – М. : Флинта : Наука, 2011. – 248 с. – URL: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_cid=25&pl1_id=3770
- 20.Мещерякова Л. А. Русская литература X–первой трети XIX веков в контексте зарубежной литературы [Электронный ресурс]. – М. ; Берлин : Директ-Медиа, 2014. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=271619>
- 21.Мещерякова Л. А. Русская литература первой половины XIX века [Электронный ресурс]. – М. ; Берлин : Директ-Медиа, 2014. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=271620>
- 22.Янушкевич А. С. История русской литературы первой трети XIX века [Электронный ресурс]. – М. : Флинта, 2013. – 748 с. – URL: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_cid=25&pl1_id=13090

Internet resurslari

23. <http://lermontov-lit.ru/lermontov/kritika/korovin-istoriya-literatury/index.htm>
24. <http://old-russian.narod.ru/>
25. <https://old-russ.narod.ru/> – Древнерусская литература. Антология – историко-литературный сайт.
26. <http://www.byliny.ru/>
27. <http://roslit.com>
28. <http://www.literaturus.ru/>
29. InoLit.Ru
30. [http:// www.inolit.ru/](http://www.inolit.ru/)

Jahon adabiyotiga oid asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2006.
2. Qosimov A., Hamdamov U. Jahon adabiyoti. – Toshkent : Akademnashr, 2024. – 320 b.
3. Sikorska L. An Outline History of English Literature. – 2003. – 529 p.
4. The Chronology of American Literature: America's Literary Achievements from the Colonial Era to Modern Times / ed. by D. S. Burt. – Boston ; New York, 2004.
5. The Oxford Companion to English Literature / ed. by M. Drabble. – Oxford: Oxford University Press, 2006.
6. Umarova M. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2023.
7. Геттнер Т., Пыпин А., Плещеев А. История всеобщей литературы XVIII века: немецкая литература. – М. : ЛитРес, 2021.
8. Гиленсон Б. История литературы США. – М. : Академия, 2003.
9. Дмитриева Е. Е. История немецкой литературы: новое и новейшее время. – М. : РГГУ, 2014.
10. Зарубежная литература XX века. – М. : Академия, 2003.
11. Киреева Н. В. Постмодернизм в зарубежной литературе. – М. : Флинта, 2004.
12. Лошакова Т. В., Лошаков А. Г. Зарубежная литература XX века (1940–1990-е годы) [Электронный ресурс] : практикум. – М. : Флинта : Наука, 2010. – 328 с. – URL: <http://znanium.com/bookread.php?book=247737>

13. Луков В. История литературы. Зарубежная литература от истоков до наших дней. – М. : Академия, 2008.
14. Низамова М. Н. История мировой литературы. XIX век. – Ташкент : Университет, 2023. – 228 с.
15. Теория литературы: История русского и зарубежного литературоведения [Электронный ресурс] : хрестоматия / сост. Н. П. Хрящева. – М. : Флинта : Наука, 2011. – 456 с. – URL: <http://znanium.com/bookread.php?book=331810>
16. Холбеков М. XX аср жаҳон адабиёти манзаралари. – Тошкент : Mumtoz soʻz, 2020.
17. Черноземова Е. Н. История английской литературы: планы, разработки, материалы, задания. – 2-е изд. – М. : Флинта : Наука, 2000.
18. Шервашидзе В. В. Западноевропейская литература XX века [Электронный ресурс] : учеб. пособие. – М. : Флинта : Наука, 2010. – 272 с. – URL: <http://znanium.com/bookread.php?book=319723>

Jahon adabiyotiga oid qoʻshimcha adabiyotlar

19. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2 jildlik. – Toshkent : Mumtoz soʻz, 2013–2016.
20. Jahon adiblari adabiyot haqida / tarj. O. Sharafiddinov. – Toshkent : Maʼnaviyat, 2010.
21. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. – Toshkent : Maʼnaviyat, 2008.
22. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent : Xalq merosi, 2004.
23. Wolfreys J. Introducing Literary Theories: Guide and Glossary. – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2001. – 332 p.
24. Горелов А. А. История мировой культуры [Электронный ресурс]. – М. : Флинта : МПСИ, 2011. – URL: <http://znanium.com/bookread.php?book=406016>
25. Есин А. Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения [Электронный ресурс]. – М. : Флинта, 2011. – URL: http://e.lanbook.com/books/element.php?pl1_id=2624
26. Жук М. И. История зарубежной литературы XIX – начала XX веков. – М. : Флинта : Наука, 2011. – URL: <http://znanium.com/bookread.php?book=320787>
27. Низамова М. История мировой литературы. Часть 1. – Ташкент : Donishmand ziyosi, 2020. – 344 с.

- 28.Осьмухина О. Ю., Казеева Е. А. От античности к XIX столетию:
История зарубежной литературы [Электронный ресурс]. – М. : Флинта :
Наука, 2010. – URL: <http://znanium.com/bookread.php?book=320776>
29.Хализев В. Е. Теория литературы. – М., 2002.

Internet resurslari

- 31.<http://feb-web.ru> <http://www.rl-critic.ru/about.html>
32.http://mognb.narod.ru/el-resurs/lit-premii.htm#_Toc215243686
33.https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=73149
34.<http://19v-euro-lit.niv.ru/19v-euro-lit/izl-hih-soloveva/index.htm>
35.https://imwerden.de/pdf/istoriya_nemetskoj_literatury_tom1_1985.pdf
36.<http://muse.jhu.edu/journals/cls/>
37.<http://www.dobirman.ucoz.kz/index/0-303>
http://mirslovarei.com/content_fil/komparativistika-5419.htm
38.<https://adabiyot.edu.uz/>
39.<https://e-adabiyot.uz/>
40.<https://tilvaadabiyot.uz/>
41.<https://kh-davron.uz/>
42.<https://www.gale.com/world-literature>
43.<https://researchguides.uic.edu/worldlit>